

**SURXONDARYO VILOYATI GEOGRAFIK O‘RNINING  
IJTIMOIY TARAQQIYOTGA TA’SIRI**

***Bozorov Samandar O‘tkir o‘g‘li***

*Termiz davlat pedagogika instituti tabiiy va aniq fanlar fakulteti  
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi  
samandarbozorov01@gmail.com*

**Annotatsiya:** Surxandaryo viloyati o'zining geografik o'rni va tabiiy resurslari tufayli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Viloyat neft, gaz, toshko'mir, polimetall ruda va kimyoviy tuzlar bilan boy bo'lib, bu resurslar uning iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda ushbu tabiiy resurslardan foydalanish, yangi neft, gaz va toshko'mir konlarini rivojlantirish orqali viloyatning iqtisodiy-geografik ahamiyatini yaxshilashdagi rolini ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, kimyo sanoati va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu viloyatning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot, Surxandaryo viloyatida resurslarni yanada samarali foydalanish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Surxandaryo viloyati, Tabiiy resurslar, Neft va gaz, Toshko'mir, Polimetall ruda, Iqtisodiy-geografik ta'sir, Kimyoviy o'g'itlar, Sanoat rivojlanishi, Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

**Аннотация:** Сурхандарьинская область благодаря своему географическому положению и природным ресурсам играет важную роль в социально-экономическом развитии. Область богата нефтью, газом, каменным углём, полиметаллическими рудами и химическими солями, что оказывает значительное влияние на её экономический рост. В исследовании рассматривается роль использования данных природных ресурсов, а также развитие новых месторождений нефти, газа и угля в повышении экономико-географического значения региона. Кроме того, существуют возможности развития химической промышленности и промышленности строительных материалов, что имеет важное значение для обеспечения социальной и экономической стабильности области. Данное исследование подчёркивает необходимость более эффективного использования ресурсов для обеспечения устойчивого развития Сурхандарьинской области.

**Ключевые слова:** Сурхандарьинская область, природные ресурсы, нефть и газ, каменный уголь, полиметаллические руды, экономико-географическое влияние, химические удобрения, развитие промышленности, социально-экономическое развитие.

## **KIRISH**

Har qanday mintaqada yuz beradigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar IGO' ga o'z ta'sirini o'tkazadi. Agar bu o'zgarishlar ijobiy jihatlarga ega bo'lsa, u albatta mintaqa geografik o'rnini qulaylashtiradi va omil sifatida ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. V.V.Pokishevskiy ta'kidlaganidek: «...IGO' davlat yoki mintaqa rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishi yoki uning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin...». Bu holat mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun IGO'ni yaxshilashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Mintaqalar geografik o'rniga ta'sir etadigan omillar haqida tadqiqotning 1.1- qismida batafsil ma'lumot berilgan edi. Chizmada ko'rsatilgan har bir guruh omili mintaqa IGO' yaxshilanishi uchun bir - biriga bog'liq holda ta'sir etishini ko'rish mumkin. Bunday holat ishimizning tadqiqot obyekti bo'lgan Surxondaryo viloyatida ham kuzatiladi. Viloyat geografik o'rnini tahlil etish asosida tabiiy resurslar qishloq tumanlari shakllanishi va ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egaligi aniqlandi. Turli davrda ushbu omilni tadqiq etgan olimlarning ilmiy xulosalari ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Jumladan, fanga ushbu tushunchani ilk bor kiritgan olim N.N.Baranskiy mineral resurslar yaqinida joylashgan aholi manzilgohlari iqtisodiy geografik o'rni resurs o'zlashtirila boshlangach keskin qulaylashib borishini ta'kidlagan.

Hisor tog' etaklarida kembriygacha bo'lgan geologik davrning gneys va slanets yotqiziqlari ustida joylashgan Sharg'un ko'miri yuqori kalloriyali, ammo qatlamlari yupqa bo'lib, o'rtacha qalinligi 2,5 m, ayrim joylarda 12 m.gacha yetadi. Ko'mir qatlamlari baland va qiya yonbag'irlarda joylashganligi sababli ularni o'zlashtirish ancha murakkab. Boysun koni ko'miri yuqori sifatli bo'lib, yura davri yotqiziqlari ustida joylashgan. Ishlab chiqarish sharoitlari Sharg'un koniga nisbatan birmuncha qulay. Hisor tog'larining janubi - sharqiy yonbag'irlarida (Sarosiyo tumani) 1990 yillarning oxirlarida tarkibida qo'rg'oshin, ruh va boshqa qimmatbaho elementlarga boy bo'lgan Xonjiza polimetall koni topilgan. Bu polimetall koni o'z zahirasiga ko'ra dunyodagi eng yirik konlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yerda geologik tekshiruvlar natijasida 1,5 mln. tonna ruh, 700 ming tonna qalay, 180 ming tonna mis va 2,3 ming tonna kumush borligi aniqlangan. Hozirda, jahon bozoridagi ushbu metallar bahosidan kelib chiqqan holda mazkur kon zahiralari 4 mlrd. AQSH dollari miqdorida baholanmoqda. 2006 - yil avgust oyidan boshlab «Xonjiza» polimetall konini ishga tushirish Olmaliq tog' kon metallurgiya kombinati ixtiyoriga berildi. Kondan foydalanish bilan bog'liq barcha ishlar ushbu kombinat tomonidan chet el sarmoyasisiz bajarilishi ko'rsatib o'tildi. 2008-2012 yillar oralig'ida ushbu konni ishga tushirish, 3 - 4 yildan keyin esa kombinat uchun ruh, qo'rg'oshin va mis konsentratlari birlamchi ishlab chiqarish tarmog'ini tashkil etish ishlarini boshlash rejalashtirilmoqda. Bu kon va ma'danni birlamchi qayta ishlovchi korxonaning ishga

tushirilishi Uzun va Sariosiyo tumanlarida aholi bandligining oshishiga, ularning IGO'ni yaxshilashga yordam beradi. Viloyatning yana bir asosiy mineral resurslaridan biri bu kimyoviy tuzlardir. Surxondaryoda fosforit, kaliy va osh tuzlarining katta zahirasi mavjud. Ushbu qazilma resurslar asosida kimyo sanoatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta bo'lsada, faqatgina Ko'hitang tog' yonbag'irlarida joylashgan.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubida joylashgan bo'lib, o'ziga xos geografik o'rni, boy tabiiy resurslari va iqlim sharoiti bilan sanoat tarmoqlari rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Viloyat sanoatining rivojlanishida bir qator geografik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Surxondaryo viloyatining O'zbekiston janubida, qo'shni davlatlar (Afg'oniston, Tojikiston) bilan chegaradosh bo'lib joylashgani uning iqtisodiy-geografik o'rnini belgilaydi. Bu o'rin:

- **Transchegaraviy savdo:** Termiz shahri orqali o'tuvchi transport yo'laklari, temir yo'l va avtomobil yo'llari xalqaro yuk tashish va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- **Logistika markazi:** Viloyat Markaziy Osiyo va Janubiy Osiyo o'rtasidagi muhim tranzit markaziga aylanib borayotgani, sanoat mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

## 2. Tabiiy resurslar salohiyati

Viloyatning sanoat tarmoqlari, ayniqsa, xomashyo bazasiga bog'liq bo'lgan tarmoqlar rivojida tabiiy resurslar asosiy omil hisoblanadi:

- **Yoqilg'i-energetika resurslari:** Neft, tabiiy gaz va toshko'mir konlarining mavjudligi energetika va kimyo sanoati rivojlanishiga zamin yaratadi.

- **Qurilish materiallari:** Ohaktosh, gips, qum-shag'al kabi xomashyo turlarining ko'pligi qurilish materiallari sanoati (sement zavodlari) rivojlanishini ta'minlaydi.

- **Mineral resurslar:** Rangli va nodir metallar konlari tog'-kon sanoati rivojlanishi uchun asosdir.

## 3. Iqlim va agrosanoat majmuasi

Surxondaryoning issiq iqlimi va unumdor yerlari qishloq xo'jaligini, natijada esa agrosanoatni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- **Yengil sanoat:** Paxtachilikning rivojlanganligi paxta tozalash va to'qimachilik sanoatining shakllanishiga olib kelgan.

- **Oziq-ovqat sanoati:** Meva-sabzavotchilikning rivojlanganligi meva va sabzavotlarni qayta ishlash, konserva va sharbat ishlab chiqarish korxonalarini (oziq-ovqat sanoati) rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

## 4. Demografik va mehnat resurslari

Viloyat aholisining zichligi va mehnat resurslarining ko'pligi sanoat korxonalarini uchun ishchi kuchi bilan ta'minlash imkonini beradi. Sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiyalar hajmi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi mehnat

resurslaridan samarali foydalanishga qaratilga

Surxondaryo viloyatining asosiy sanoat tarmoqlari: yengil sanoat (paxta tozalash), oziq-ovqat sanoati, un-yorma. Surxondaryo viloyatiga O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotining 3-4 foizi tog‘ri keladi. Respublikamizning janubiy viloyatlari Qashqadaryo va Surxondaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, yuk tashishning transport ta‘minotini yaxshilash maqsadida „Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on“temiryo‘li ishga tushirildi. Bu temiryo‘l Boysun tumani orqali iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tumanning yaxshi rivojlanmayotgan qishloqlariga sanoatning kirib kelishiga, yerusti va yerosti boyliklaridan keng foydalanishga, dam olish maskanlari qurishga katta imkoniyat yaratmoqda. Viloyat sanoat tarmoqlari ichida yetakchi hisoblangan yengil sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi tumanlarida to‘qimachilik komplekslari tashkil etilib, viloyatda yetishtirilayotgan paxta tolasining qayta ishlash hajmini 20—25 foizga ytkazish mo‘ljallanmoqda.

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to‘qish, konserva, yog‘-moy va boshqa sanoat tarmoklaridir. Kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda.

Kon sanoatini ham rivojlantirish jadal ketmoqda. Hozirda Xovdog‘, Uchqizil, Lalmikor va Kakaydi yaqinida neft va gaz konlari ishlamoqda. O‘zbekistondagi uchta yirik konning ikkitasi Surxondaryoda (Sharq‘un va Boysun ko‘mir konlari).

### **XULOSA**

Surxondaryo viloyati o‘zining qulay geografik joylashuvi va boy tabiiy resurslari bilan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Hududdagi neft, gaz, toshko‘mir, polimetall rudalar va kimyoviy xomashyolardan oqilona foydalanish sanoatni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, resurslardan samarali va ekologik jihatdan xavfsiz foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda qayta ishlash sanoatini kengaytirish barqaror rivojlanishni ta‘minlaydi. Umuman olganda, viloyatning iqtisodiy-geografik salohiyatidan to‘liq foydalanish uning kelgusidagi taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biridir.

### **Adabiyotlar:**

1. Allanov Q.A., Mustayev Q.R. O‘rta Osiyo tog‘ muzliklari va uni o‘rganishning amaliy ahamiyati//O‘zbekistonda geografiya fanining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Termiz, 2020. – 36-39 b.

2. Maxmatraimov Ch.E., Allanov Q.A., Choriyev A.Q. Surxondaryo viloyati iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ta'sir etuvchi ayrim muammolar va uni bartaraf etish masalalari//Yangilanayotgan O'zbekistonda geografiya: fan, ta'lim va innovatsiya. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – 137-139 b.
3. Alibekov L.A “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi” Samarqand 2006
4. Alibekov L.A “Эколого-географические проблем Централний Азии” Samarqand, 2010.
5. Hasanov I.A, G'ulomov P.N “O'zbekiston tabiiy geografiyasi” Toshkent , 2003.
6. Hikmatov F.X, Aytboyev D.P “Gidrologiya asoslari” Toshkent,2003
7. Chub B.E “Iqlim o'zgarishi va uning O'zbekiston Respublikasi tabiiy-resurs potensialiga ta'siri” Toshkent, 2000
- 8.Rafiqov A “Geoekologik muammolar ” Toshkent, “O'qituvchi”, 1997
9. Allanov Q.A, Abdimo'minov B.O “Global iqlim o'zgarishi, uning oqibatlari va unga moslashish” Termiz, 2018
10. Nizomov A, Nugmanova A,Matnazarov A “O'zbekiston tog' muzliklari” Toshkent, 2016.